

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIKNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISH
MARKAZI

Ro'yxatga olindi:

№ IXT - 180

2025 yil «14» avgust



Bilim sohasi: sog'liqni saqlash

«BOLALAR VA O'SMIRLAR PSIXIATRIYASI» mutaxassisligi bo'yicha
ixtisoslashtirish kursi
O'QUV DASTURI

(o'qish hajmi – 504 kredit)

Toshkent – 2025

Tuzuvchilar:

Tursunxodjaeva L.A

TXKMRM «Narkologiya va o'smirlar
psixopatologiyasi» kafedrası professori
t.f.d., professor

Baxramov F.Sh.

TXKMRM «Narkologiya, tibbiy psixologiya va
o'smirlar psixopatologiyasi» kafedrası mudiri,
t.f.n.

Taqrizchilar:

Ashurov Z.Sh.

RIRSIATM direktori, Toshkent tibbiyot
universiteti «Psixiatriya va narkologiya»
kafedrası mudiri t.f.d., dotsent

Alimov U.X.

TXKMRM «Psixiatriya va psixoterapiya»
kafedrası mudiri t.f.d., professor

O'quv dasturi Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining
Markaziy tashkiliy-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan

2025 y. «20» 05,

bayonnoma № 10

Kengashi raisi


M.S. Kasimova



O'quv dasturi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Uzluksiz tibbiy-farmatsevtik
ta'limni Muvofiqlashtiruvchi kengashda tasdiqlangan

2025 y. «14» 08,

bayonnoma № 3

Kengashi raisi


X.A. Akilov



KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ularning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga nisbatan qarshi immunitetni shakllantirish, shuningdek inson salomatligini ta‘minlashga qaratilgan ishlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 19 iyundagi “Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-196 qarorida “Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini takomillashtirish, ruhiy holat buzilishlarini erta aniqlash, ularga tashxis qo‘yish, ruhiy holati buzilgan shaxslarni davolash sifatini oshirish, sohada samarali boshqaruv tizimini joriy etish, ilm-fanni rivojlantirish, kadrlar salohiyatini yuksaltirish va psixiatriya muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholiga o‘z vaqtida psixiatriya yordami ko‘rsatilishini tashkil etish, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish” kabi muhim vazifalar belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda, jumladan psixiatriya xizmatining tashkiliy tizimini yanada takomillashtirish va hajmini kengaytirishga, ruhiy kasalliklarga chalingan bemorlarga tibbiy-ijtimoiy yordamni rivojlantirishga qaratilgan va yanada samaraliroq zamonaviy terapevtik texnologiyalarni joriy etish katta ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan narkolog-shifokorlar uchun tizimlashgan, strukturali, dalillarga asoslangan tibbiyot masalalarini o‘z ichiga olgan aniq va har tomonlama keng bilimlar havodek zarur ahamiyat kasb etadi.

O‘qitish maqsadi: Jahon ilm-fani va amaliyotining bolalar psixiatriyasi sohasidagi zamonaviy yutuqlari asosida, respublikamizning sog‘liqni saqlash xususiyatlaridan kelib chiqib malakaviy tavsiflar talablariga muvofiq ravishda bolalar va o‘smirlar psixiatriyasi sohasidagi bilimlarni sifatli o‘zlashtirgan, mutaxassisning funksional majburiyatlarini mustaqil bajarishga qodir bo‘lgan bolalar psixiatrlarini tayyorlash.

O‘qitish vazifalari:

- Bolalar va o‘smirlar psixiatrlarni bemor bolalarni tekshirish va davolash asoslari bilan tanishtirish, klinik psixiatriyaning nazariy asoslarini o‘zlashtirish;
- Ruhiy kasalikka chalingan bolalar va o‘smirlarga to‘g‘ri tashhis qo‘yish va davolashning amaliy ko‘nikmalarini o‘rgatish;
- Ruhiy kasalikka chalingan bolalarni davolashda psixoterapiya usullarini qo‘llash, reabilitatsiya jarayoni o‘tkazishga amaliy ko‘nikmalar hosil qilish;
- Aholi orasida, ayniqsa bolalar va o‘smirlar orasida ruhiy kasalliklarning oldini olish masalalari bilan tanishtirish;

Ta‘lim oluvchilar kontingenti: Toksikologlar, nevrologlar, narkologlar va bolalar nevrologlari.

O‘quv dasturni o‘zlashtira olishi uchun zarur bo‘lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- Insondagi ruhiy jarayonlar, ularni normadagi holati va o‘zgarishlari haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lishlik;

- Ruhiy jarayonlarni bolalar va o'smirlarda kechishining o'ziga xosligi to'g'risida umumiy bilimga ega bo'lganlik;
- Bolalar va o'smirlarda uchrashi mumkin bo'lgan ruhiy kasalliklar haqida umumiy tushunchalarni bilishlik;
- Bolalar va o'smirlarda kuzatilishi mumkin bo'lgan psixopatologik simptom va sindromlar haqida bazaviy bilimga ega bo'lganlik;
- Abstrakt fikrlashga, klinik tahlil qilishga, sintezlashga va jamoani boshqarishga tayyorlik;
- Bemorlarga hamdard munosabatda bo'lishlik;

Dasturning dolzarbligi: Ushbu o'quv dastur O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 12 maydagi «Psixiatriya yordami to'g'risida»gi O'RQ-690 Qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida ruhiy kasalliklar profilaktikasi samarasini oshirish, ularni erta aniqlash, ruhiy kasallikka chalingan bolalarni davolashga va reabilitatsiya dasturiga keng jalb qilishga va ruhiy kasalliklarning tibbiy-ijtimoiy oqibatlarini oldini olishga yo'naltirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini egallash, hamda ularni kundalik amaliyotda qo'llashga, kasbiy dunyo qarashini kengaytirishga yordam beradigan va yuqori darajadagi halqaro standartlarga javob beradigan raqobatbardosh malakali kadrlar tayyorlashda jahon protokollari va standartlari, dalillarga asoslangan tibbiyot masalalarini o'z ichiga olgan.

Professor – o'qituvchilar tinglovchilarni o'qitish davrida ularga bolalarda uchraydigan ruhiy kasalliklarning o'ziga xos jihatlarini o'rgatishlari, ruhiy buzilishlarning birlamchi profilaktikasi, ularni erta tashhislash, samarali davolash, psixoterapiya va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyalash usullarini qo'llay bilishlari, hamda zamonaviy tibbiyotning erishgan yutuqlarini, JSST va o'rganilayotgan patologiya bo'yicha dalillarga asoslangan tibbiyotning zamonaviy tavsiyalarini o'rgatgan holda egallashlari uchun ishlab chiqilgan.

Dastur hajmi: 504 kredit, 3,5 oy (xaftasiga 36 kreditdan)

O'qish shakli: Kunduzgi – o'qish ishdan ajralgan holda.

Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: kuniga 6 kredit, mashg'ulotlar 8³⁰ da boshlanib, 13³⁰ da tamom bo'ladi. Tushlik 30 daqiqa.

O'qish tugagandan so'ng beriladigan hujjat: O'quv dasturini to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani muvaffaqiyatli topshirgan tinglovchilarga «Bolalar va o'smirlar psixiatriyasi» mutaxassisligi bo'yicha Davlat talabi namunasidagi guvohnoma taqdim etiladi. Yakuniy attestatsiyadan o'ta olmagan tinglovchilarga esa belgilangan tartibdagi o'quv dasturi bo'yicha o'tilgan kreditlar haqidagi ma'lumotnoma beriladi.

Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng egallashi lozim bo'lgan kasbiy kompetensiya:

Dasturni muvaffaqiyatli egallagan tinglovchi qobiliyat/tayyorlikni o'z ichiga qamragan quyidagi yangi kompetensiyaga ega bo'ladi:

- Aholining turli qatlamlari orasida bolalar va o'smirlarda uchraydigan ruhiy kasalliklar bilan kasallanishni kamaytirishga qaratilgan davolash-profilaktika va tashkiliy tadbirlarni o'tkazishga, sog'lom oila muhitini yaratishga, sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishga tayyorlik;

- Ruhiy kasallikka chalingan bolalarning somatik, nevrologik va ruhiy holatini baholash, ularni instrumental va laboratoriya, ekperimental-psixologik usullar yordamida tekshirish, tashhishlash va ruhiy kasalliklarning ilk klinik belgilarini, uning rivojlanish omillarini aniqlash va ular ta'sirini kamaytirish uchun chora-tadbirlarni amalga oshirishga qobiliyat va tayyorlik;
- Ruhiy kasalliklar klinikasi va kechishini, ruhiy kasalliklarning tibbiy va ijtimoiy asoratlari qonuniyatlarini baholashga, psixiatriyaning zamonaviy yutuqlariga asoslangan bilimlaridan foydalanib bolalarda uchraydigan ruhiy kasalliklarning diagnostikasini amalga oshirishga, psixiatrik tashhisni asoslashga qobiliyat va tayyorlik;
- Ruhiy kasallikka chalingan bolalar va o'smirlarga davlat tomonidan kafolatlangan psixiatrik yordamini to'liq hajmda ambulator va statsionar sharoitida ko'rsatishga, ularga hurmat va insonparvar munosabatda bo'lishga, bemordan olingan ma'lumotlarni konfidensialligi huquqlariga amal qilishga qobiliyat va tayyorlik;
- Ruhiy buzilishlarning o'tkir davri yuzaga kelgan vaqtda, bemorlar o'zi uchun hamda atrofdagilar uchun xavfli bo'lgan holatlar tashhishlanganda shoshilinch psixiatrik yordam ko'rsatishga qobiliyat va tayyorlik;
- Ruhiy kasallikka chalingan bolalarni tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya dasturlarini o'tashga jalb qilish, ushbu dasturlar tarkibida zamonaviy psixoterapiya usullarining barchasini qo'llashga va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatishga, hamda bemor bolalarning ota-onalariga oilaviy konsultatsiyalar va oilaviy psixoterapiya o'tkazishga, shu tariqa psixiatrik bemorlarni jamiyatga ijtimoiy adaptatsiyalashgan shaxs sifatida qaytadan reintegratsiya qilishga qobiliyat va tayyorlik;

IXTISOSLASHTIRISH KURSI O'QUV REJASI

№	Modul mavzulari nomi	Kredit	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulotlar			Attestatsiya
				Amaliy dars	Seminar	Mahorat darsi	
1	Modul 1. Bolalar psixiatriyasi fani, psixiatriya xizmatini tashkil etish	10	2	6			2
2	Modul 2. Umumiy psixopatologiya asoslari	58	18	36			4
3	Modul 3. Bolalar va o'smirlarda uchraydigan ruhiy o'zgarish sindromlari	50	10	36		2	2
4	Modul 4. Psixogen kasalliklar	86	16	60	6	2	2
5	Modul 5. Psixopatiyalar	12	4	6			2

6	Modul 6. Ekzogen psixozlar	6	2	4			
7	Modul 7. Rezidual-organik ruhiy oʻzgarishlar	22	4	16			2
8	Modul 8. Shizofreniya	40	6	28		2	4
9	Modul 9. Epilepsiya	22	4	16			2
10	Modul 10. Oligofreniyalar	32	6	20		4	2
11	Modul 11. Aql kamlikning yengil darajalari	32	6	20	4		2
12	Modul 12. Bemorlarni davolashda psixofarmakologiya usullari	58	8	38	4	4	4
13	Modul 13. Psixoterapiya usullari	62	12	44		4	2
14	Modul 14. Ruhiy kasalliklarni oldini olish	8	2	4		2	
	Attestatsiya: -nazorat - test -amaliy koʻnikma	6					6
	Jaʼmi	504	100	334	14	20	36
				368			

1. Modul. Bolalar va o'smirlar psixiatriyasining umumiy masalalari.

Bolalar va o'smirlar psixiatriyasi fani va vazifalari. Bolalar va o'smirlar psixiatriyasi xizmatining zamonaviy holati. Bolalar va o'smirlar psixiatriyasining huquqiy, tashkiliy va tibbiy masalalari. Bolalar va o'smirlar yoshida ruhiy kasalliklarning etiologiyasi. Bolalar va o'smirlar yoshida ruhiy kasalliklarning epidemiologiyasi. Psixiatriya sohasidagi qonunlar, buyruqlar, qarorlar va qo'llanmalar.

Kasalliklarning tibbiy bayonlari. Ruhiy bemorlar bilan muloqotda bo'lish, ularning ruhiy holatini tekshirish usullari.

2. Modul. Umumiy psixopatologiya

Bolalar va o'smirlar yoshidagi psixopatologik sindromlar muammosining zamonaviy holati va klassifikatsiyasi. Psixopatologik simptom va sindromlar haqida tushuncha. Pozitiv va negativ buzilishlar. Sezgi-idrok va tafakkur buzilishlari, affektiv sindromlar, shaxs va aql buzilishlari, iroda buzilishlari, nevrosimon sindromlar, depersonalizatsiya va derealizatsiya, es-hush buzilishlari sindromlari, xotira va diqqat buzilishlari.

Tinglovchilar amaliy mashg'ulotlar davomida yuqorida ko'rsatilgan har bir ruhiy o'zgarishlar kuzatilgan bemorlar bilan tanishadilar. Ularda o'zgarishlarning klinik va

paraklinik usullar orqali izohlab, tashhis qo'yishni o'zlashtiradilar, mustaqil ravishda bemorlarni davolash ishiga qatnashadilar.

3. Modul. Bolalar va o'smirlarda uchraydigan ruhiy o'zgarish sindromlari

Nevropatik va giperdinamik sindrom. Qo'rquv, daydish, uydan ketish, patologik xayolparastlik sindromlari. Geboid va dismorfofobiya sindromlari. Bir taraflama qiziqish va intilishlar sindromi.

Tinglovchilar amaliy mashg'ulotlar davomida yuqorida ko'rsatilgan har bir ruhiy o'zgarishlar kuzatilgan bemorlar bilan tanishadilar. Ularda o'zgarishlarni klinik va paraklinik usullar orqali izohlab, tashhis qo'yishni o'zlashtiradilar, mustaqil ravishda bemorlarni davolash ishiga qatnashadilar.

4. Modul. Psixogen kasalliklar

Reaktiv psixozlar. Qo'rquv, isterik, o'rnashib qolgan fikrlar nevrozlari. Depressiv, ipoxondrik va astenik nevrozlar, ruhiy anoreksiya. Nevrotik duduqlanish, tiklar, uyqu buzilishlari. Nevrotik enurez, enkoprez, patologik harakat buzilishlari. Psixogen va kasallik darajasidagi fe'l-atvor o'zgarishlari. Psixogen ta'sir natijasidagi shaxsning patologik shakllanishi.

Tinglovchilar ko'rsatilgan kasalliklarda kuzatilayotgan belgilarni aniqlab, tashhis qo'yishni o'zlashtiradilar.

5. Modul. Psixopatiyalar

Psixopatiya haqidagi ilmning zamonaviy holati. Psixopatiyaning etiologiya, patogenezi, klassifikatsiyasi. Psixopatiyalar turlari: qo'zg'aluvchan, epileptoid, turg'unsiz, isterik, astenik, psixastenik, shizoid, gipertim turlari. Psixopatiyalar dinamikasi. Psixopatiyalarning xarakter aksentuatsiyasi bilan differensial diagnostikasi. Psixopatiyalarning ijtimoiy oqibatlari. Psixopatiyalarning bolalar va o'smirlardagi o'ziga xos xislatlari.

Tinglovchilar mustakil ravishda bemorlarni kuratsiya etib, guruhda muhokama qiladi.

6. Modul. Ekzogen psixozlar

Ekzogen psixozlarning etiologiya va patogenezi. Ekzogen psixozlarning klinikasi, endogen psixozlardan farqi. Ekzogen-organik psixozlar. Psixooorganik sindrom. Ekzogen psixozlar differensial tashhisi.

7. Modul. Rezidual-organik ruhiy o'zgarishlar

Rezidual-organik ruhiy o'zgarishlarning sabablari, patogenezi, klassifikatsiyasi. Bosh miyaning ba'zi tizimlarining rivojlanishining buzilishi sindromlari. Nutq buzilishi sindromlari. Ruhiy va ruhiy-jismoniy infantilizm sindromlari. «Organik autizm» sindromi. Asosan ensefalopatik turlari. Aralash (ensefalopatik-dizontogenetik) patogenezli turlari.

8. Modul. Shizofreniya

Shizofreniyalar etiologiya, patogenezi va klassifikatsiyasi. Uzluksiz kechuvchi shizofreniya. Xurujsimon-progredient shizofreniya. Xurujsimon-kechuvchi shizofreniya. Shizofreniyaning boshqa ruhiy buzilishlar bilan differensial diagnostikasi.

Tinglovchilar amaliy mashg'ulotlar davomida yuqorida ko'rsatilgan har bir shizofreniya turlari kuzatilgan bemorlar bilan tanishadilar. Shizofreniya kasalligida kuzatilayotgan belgilarni aniqlab, tashhis qo'yishni o'zlashtiradilar.

9. Modul. Epilepsiya

Epilepsiyalar haqidagi ilmnning zamonaviy holati, tasnifi. Umumiy klinik xarakteristikasi. Epilepsiya tutqanog'i turlari. Epilepsiyada ruhiyatning o'zgarishi. Epileptik psixozlar. Tutqanoq talvasalari holatlaridagi shoshilinch yordam. Epilepsiyalarni davolash va oldini olish.

Tinglovchilar amaliy mashg'ulotlar davomida har bir epilepsiya turlari kuzatilgan bemorlar bilan tanishadilar. Epilepsiya kasalligida kuzatilayotgan belgilarni aniqlab, tashhis qo'yishni o'zlashtiradilar.

10.Modul. Oligofreniyalar

Oligofreniyalar etiologiyasi, patogenezi. Oligofreniyalar turlari, klinikasi. Tug'ma oligofreniyalar. Oligofreniyalardagi harbiy ekspertiza masalalari.

11.Modul. Aql kamlikning yengil darajalari.

Aql kamlikning yengil darajalari. Uning dizontogenik va ensefalopatik turlari. Nogironlikdagi aql o'zgarishlari.

Tinglovchilar amaliy mashg'ulotlar davomida har bir oligofreniya turlari kuzatilgan bemorlar bilan tanishadilar. Kasallik belgilarini aniqlab, tashhis qo'yishni o'zlashtiradilar.

12.Modul. Bemorlarni davolashda psixofarmakologiya usullari

Umumquvvatlovchi terapiya. Neyroleptiklar bilan davolash. Antidepressantlar va trankvilizatorlar bilan davolash. Psixotrop dorilar asoratlari va ularni bartaraf etish.

Amaliy mashg'ulotlar davomida tinglovchilar ruhiy kasalliklarda umumquvvatlovchi, vitaminlar bilan davolash, Psixotrop dorilar bilan davolash usullari yordamida mustaqil ish olib boradilar, davolash usullarini bemorlarda qo'llaydilar.

13.Modul. Psixoterapiya usullari

Suggestiv psixoterapiya. Gipnoterapiya. Uyg'oq holatdagi suggestiya. Autogen trenirovkasi. Ratsional psixoterapiya. Guruh va jamoa usulidagi psixoterapiya. O'yinga oid psixoterapiya. Xorijiy psixoterapiya usullari. Pedagogika usullari. Nevrozlarda psixoterapiya.

Amaliy mashg'ulotlar davomida tinglovchilar yuqorida ko'rsatilgan psixoterapiya usullarini amalda qo'llaydilar, bemorlar bilan mustaqil ish olib boradilar.

14.Modul. Ruhiy kasalliklarni oldini olish

Ruhiy kasalliklar profilaktikasi tamoillari va usullari. Aholi orasida profilaktika ishlarini olib borish. Profilaktik hisobidagi guruhlar bilan ish olib borish.

Amaliy mashg'ulot davomida tinglovchilar ruhiy kasalliklarini oldini olish usullarini o'rganadilar.

Attestatsiya:

- nazorat
- test
- amaliy ko'nikma

Dasturni amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik ta'minoti

O'quv bazasi: 1. Toshkent shahar bolalar ruhiy kasalliklari markazi, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Bexterev ko'chasi, 2 uy.

Dastur bo'yicha auditoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati: kompyuter, proektor, doska, flebchat, marker. Modullar bo'yicha tavsiya qilinadigan o'quv uslubiy xujjatlar, tarqatma materiallar, nazorat savollari, qo'shimcha adabiyotlar elektron nusxada saqlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Detskaya psixiatriya: uchebnik pod red. prof. G.M.Kojinoy i prof. V.D.Mishieva. – M., «Meditsina», 2012
2. Detskaya psixiatriya: Sovremennye voprosy diagnostiki, terapii, profilaktiki i reabilitatsii. – SPb, 2014
3. Psixiatriyadan ma'lumotnoma prof. Sh.A.Murtalibov redaksiyasida.- Tashkent, 2009.
4. Psicheskies rasstroystva i rasstroystva povedeniya F 00 – F 99 (klass V MKB – 10, adaptirovanny dlya ispolzovaniya v Respublike Uzbekistan). Tashkent, 2005.
5. Tursunxodjaeva L.A. Diagnostika zloupotrebleniya novymi vidami psixoaktivnykh veshchestv: Metodicheskie rekomendatsii. – Tashkent, 2017.
6. Shamsiev E.S., Tursunxodjaeva L.A., Psixoterapiya. Uchebnoe posobie. Tashkent, 2011.

Internet resurslar:

1. [http:// booksmed.ru](http://booksmed.ru)
2. <http:// knigimednarod.ru>
3. <http:// bestmed.ru>
4. <http:// psybook.newmail.ru>
5. <http://gipnoz.lgg.ru>
6. <http://www.rusmedserv.com>
7. <http://www.psyobsor.org>